




TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RESPUBLIKA OAK JURNALI



2026, 3-SON

ISSN 2181-4201

<https://etjournal.buxdpi.uz>



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2026

TARBIYA DARSLARIDA HADISLARDAN FOYDALANISH ORQALI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH

Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna,
Zarmed universitetining “Ijtimoiy fanlar”
kafedrası o'qituvchisi
e-mail fayzullayevagulnoza10@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan “Tarbiya” fanining ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimidagi o'rni hamda hadislarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Hadislarining o'quvchilarda axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati, insonparvarlik, halollik, vatanparvarlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tarbiya darslarida hadislarini qo'llashning samarali pedagogik usullari va ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi natijadorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya fani, hadis, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, komil inson, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, axloqiy kompetensiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ХАДИСОВ НА УРОКАХ ВОСПИТАНИЯ

Файзуллаева Гулноза Камоловна,
Преподаватель кафедры «Социальные науки»
Университета Zarmed
e-mail: fayzullayevagulnoza10@gmail.com

Аннотация: В статье с научно-педагогической точки зрения проанализирована роль учебного предмета «Воспитание», преподаваемого в общеобразовательных школах, в системе духовно-нравственного воспитания, а также вопросы использования воспитательного потенциала хадисов. Освещено значение хадисов в формировании у учащихся таких качеств, как нравственные ценности, гражданская ответственность, гуманизм, честность, патриотизм и социальная активность. Кроме того, обоснованы эффективные педагогические методы применения хадисов на уроках воспитания и их результативность в образовательном и воспитательном процессе.

Ключевые слова: предмет «Воспитание», хадис, духовно-нравственное воспитание, педагогические технологии, гармонично развитая личность, национальные ценности, духовность, нравственная компетентность.

IMPROVING SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION THROUGH THE USE OF HADITHS IN TARBIYA LESSONS

Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna,
Lecturer, Department of Social Sciences
Zarmed University
E-mail: fayzullayevagulnoza10@gmail.com

Abstract: This article analyzes the role of the subject “Tarbiya” (Moral Education), taught in general secondary schools, within the system of spiritual and moral education, as well as issues related to the use of the educational potential of Hadiths from a scientific and pedagogical perspective. The study highlights the importance of Hadiths in fostering students' moral values, civic responsibility, humanism, honesty, patriotism, and social engagement. Furthermore, effective pedagogical methods for integrating Hadiths into Tarbiya lessons and

their effectiveness in the educational process are substantiated.

Keywords: Tarbiya subject, Hadith, spiritual and moral education, pedagogical technologies, well-rounded individual, national values, spirituality, moral competence.

Kirish

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi va inson kapitalini rivojlantirish jarayonida yoshlarning axloqiy dunyoqarashini boyitish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan “Tarbiya” fani o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim har qanday milliy ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, shaxsning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ushbu ta'lim bosqichi uzluksiz ta'lim tizimining markaziy bo'g'ini sifatida qaralib, o'quvchilarning bilim olish ehtiyojlarini qondirish, fuqarolik ongini shakllantirish va ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli mafkuraviy va madaniy ta'sirlarning kuchayib borishi ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ma'naviy-axloqiy tarbiya pedagogika fanining fundamental kategoriyalaridan biri bo'lib, shaxsda jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalarini shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayondir. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda ushbu jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi, fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi va ma'naviy immunitetining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash pedagogika fanining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya va komil insonni shakllantirish masalalari Sharq pedagogik tafakkurida markaziy o'rin tutadi. Bu jarayon nafaqat insonning shaxsiy kamoloti, balki butun jamiyatning barqaror taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishining asosiy omili sifatida qaralgan. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy inson kamolotini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etgan. U axloqiy fazilatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratib, ularni bilimdonlik, donolik, vijdonlilik, adolat, kamtarlik va haqiqatga intilish kabi xislatlar orqali ifodalagan. Forobiyning fikricha, axloqiy kamolot tug'ma emas, balki tarbiya, ta'lim va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi.

Abu Ali ibn Sino esa inson tarbiyasida axloqiy odatlarning shakllanishini ta'limning eng muhim natijalaridan biri deb hisoblagan. Uning nazarida tarbiya-inson tabiatini takomillashtirishga qaratilgan uzluksiz jarayon bo'lib, yaxshi va yomon xulq sharoit, tarbiya va odatlanish natijasida vujudga keladi. Ibn Sino bolalikdan boshlab axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat bergan va tarbiyani nafaqat bilim berish, balki insonni har tomonlama barkamol shaxs qilish vositasi deb ta'kidlagan.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasida ilm-fan va axloqiy kamolotning uyg'unligini ta'kidlagan. U tarbiyani insonning aqliy va ruhiy rivojlanishining bir butun jarayoni sifatida ko'rib, yosh avlodni ilmiy tafakkur va axloqiy poklik ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. Beruniyning asarlarida ilm va axloq bir-birini to'ldiruvchi ikki asosiy ustun sifatida talqin etiladi.

Imom Muhammad al-G'azzoliy Islom pedagogikasida tarbiyaning chuqur ruhiy va

axloqiy asoslarini ishlab chiqqan buyuk olimlardan biri hisoblanadi. U “Thyou ulum id-din” asarida bolalar tarbiyasida axloqiy odatlarni shakllantirish, yomon xislatlardan himoyalash va yaxshi fazilatlarni o‘stirish masalalarini batafsil yoritgan. Al-G‘azzoliy tarbiyani inson qalbini poklash va uni komillikka yetaklashning muqaddas vazifasi deb hisoblagan.

XX asr boshida esa milliy ma’rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiyani “yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi” sifatida tavsiflagan edi. Avloniyning “Turkiston gulistoni yoxud axloq” asari milliy tarbiya va axloqiy kamolot masalalarini chuqur yoritib, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Mazkur tarixiy-pedagogik qarashlar bugungi zamonaviy tarbiya tizimining konseptual asoslari bilan to‘liq hamohangdir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya islohotlari, xususan, “Tarbiya” fani konsepsiyasi va o‘quv dasturlarida Sharq mutafakkirlarining merosi asos qilib olingan.

Islom pedagogikasida hadislar tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini tashkil etuvchi fundamental manbalardan biri hisoblanadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Muslim kabi buyuk muhaddislar tomonidan jamlangan sahii hadislar insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi axloqiy mezonlarni o‘zida mujassam etgan. Hadislarda ilgari surilgan ezgulik, adolat, mehr-oqibat, halollik, ilmga intilish, insonparvarlik, ota-onaga hurmat, sabr-qanoat va poklik kabi g‘oyalar bugungi ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadlari bilan to‘liq uyg‘unlashadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham ushbu ma’naviy meros namunalaridan foydalanish o‘quvchilarda qadriyatlarga asoslangan kompetensiyalarni (axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik, ma’naviy barkamollik) rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida baholanmoqda.

Ushbu yondashuv nafaqat o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlaydi, balki ularni jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zolari sifatida tarbiyalashga imkon beradi. Natijada, komil insonni shakllantirish jarayoni milliy taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

“Tarbiya” fanida hadislar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muhim va samarali manbalaridan biri sifatida qaraladi. Ularning ixchamligi, mazmuniy teranligi va hayotiyliigi o‘quvchilarda axloqiy me’yor va qadriyatlarni shakllantirishda yuqori didaktik samaradorlikka ega bo‘lishini ta’minlaydi. Hadislar vositasida o‘quvchilarda halollik, rostgo‘ylik, ota-onaga hurmat, ilmga intilish, sabr-toqat, mehr-shafqat, mas’uliyat, adolat va insonparvarlik kabi axloqiy fazilatlar tizimli ravishda rivojlantiriladi. Hadislarning tarbiyaviy ta’siri nafaqat nazariy bilimlarni uzatish, balki shaxsiyatning ichki dunyosini boyitish va amaliy xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan.

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning “Sizlarning eng yaxshilaringiz axloqi go‘zal bo‘lganlaringizdir” mazmunidagi hadisi axloqiy tarbiyaning inson kamolotida tutgan ustuvor o‘rnini ta’kidlaydi. Ushbu hadis o‘quvchilarni axloqiy go‘zallikni insonning asosiy fazilati sifatida qabul qilishga va kundalik hayotda yuksak axloqiy xulqqa intilishga undaydi. Shuningdek, “Ilm olish har bir musulmon uchun farzdir” mazmunidagi hadis yosh avlodni doimiy ravishda bilim olishga, intellektual salohiyatini rivojlantirishga va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallashga chorlaydi. “Har bir inson o‘z amallariga yarasha javobgar” kabi hadislar esa shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan hadislar quyidagi tarkibiy xususiyatlari va didaktik funksiyalari bilan ajralib turadi:

1. Shakliy qulaylik. Hadislarning qisqa, lo‘nda va obrazli shaklda bayon etilishi ularni maktab o‘quvchilari tomonidan oson qabul qilinishini va uzoq muddat xotirada saqlanishini ta‘minlaydi. Bu xususiyat hadislarni darsning turli bosqichlarida (motivatsiya, asosiy qism, xulosa) samarali qo‘llash imkonini beradi.

2. Insonparvarlik va umuminsoniy xarakter. Hadislarda ilgari surilgan g‘oyalar zamon va makon chegaralaridan mustaqil ravishda dolzarbligini saqlab qoladi. Ezgulik, adolat, mehr-muhabbat va halollik kabi tamoyillar milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

3. Amaliy yo‘naltirilganlik. Hadislar axloqiy me‘yorlarni faqat nazariy jihatdan yoritibgina qolmay, balki Payg‘ambar (s.a.v.) va sahobalarning hayotiy voqealari orqali aniq xulq-atvor modellarini taqdim etadi. Bu xususiyat o‘quv jarayonida rolli o‘yinlar, vaziyatli mashqlar va muhokamalarni tashkil etish uchun qulay zamin yaratadi.

4. Refleksivlik. Hadislar o‘quvchilarni o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy tahlil qilishga, shaxsiy kamchiliklarini anglashga va o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Bu jarayon shaxsiyatning ichki motivatsiyasi va o‘zini o‘zi takomillashtirish mexanizmlarini faollashtiradi.

5. Integrativlik. Hadislar boshqa o‘quv fanlari (ona tili, tarix, ijtimoiy fanlar va boshqalar) bilan integratsiyalashga imkon beradi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarini holistik tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu yondashuv “Tarbiya” fani o‘quv dasturining asosiy maqsadlari -yosh avlodda ma‘naviy-axloqiy barkamollikni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlash hamda ularni jamiyatning mas‘uliyatli a‘zolari sifatida tarbiyalash vazifalariga to‘liq mos keladi. Natijada, hadislar nafaqat axloqiy bilimlar manbai, balki komil insonni shakllantirishning muhim pedagogik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tayanch o‘rta ta‘lim bosqichining dastlabki davri bo‘lgan 5–7-sinflar o‘quvchi shaxsining axloqiy va ma‘naviy jihatdan shakllanishida eng dinamik davr hisoblanadi. Mazkur yosh davrida qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlar va ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlari faol rivojlanadi. Shu sababli, dars jarayonida hadislarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda differensiyalash (tabaqalash) quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Sinf	Asosiy tarbiyaviy yo‘nalishlar	Hadislarning didaktik vazifasi
5-sinf	Odob-axloq qoidalari, ota-onaga hurmat, do‘stlik, mehr-oqibat va oilaviy qadriyatlar.	Shaxsiy odob me‘yorlari va eng yaqin ijtimoiy muhitga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.
6-sinf	Halollik, mas‘uliyat, mehnatsevarlik va jamoaviy munosabatlar.	O‘quvchilarda mehnatga nisbatan hurmat va jamoada ishlash mas‘uliyatini uyg‘otish.
7-sinf	Fuqarolik pozitsiyasi, ma‘naviy mustaqillik, ilmiy tafakkur va ijtimoiy mas‘uliyat.	Murakkab axloqiy kategoriyalarni anglash, mustaqil dunyoqarash va ijtimoiy faollikni shakllantirish.

Tarbiya darslari mazmunini hadislar bilan integratsiyalash modeli

Tarbiya darslarida hadislardan foydalanishda integratsion va kompetensiyaviy yondashuvlarni tizimli qo'llash dars samaradorligini ta'minlaydi. Darslik mavzularini hadislar bilan integratsiyalashda asosiy e'tibor mavzularning mazmun-mohiyati hamda tarbiyaviy yo'nalishining o'zaro uyg'unligiga qaratiladi. Tadqiqot doirasida hadislarini o'qitish va ularning amaliy natijadorligini oshirish maqsadida quyidagi to'rt bosqichli pedagogik model taklif etiladi:

1.Motivatsion bosqich:Darsning boshlanishi.

Dars boshida mavzuga mos va dars mazmunini ochib beruvchi maxsus hadis keltiriladi. Bu o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish, emotsional intilish va ichki ehtiyojni shakllantiradi.

2.Kognitiv bosqich:Tahlil va sharh.

Hadis mazmuni ilmiy va pedagogik jihatdan atroflicha sharhlanadi. Uning tub mohiyati ochib berilib, bugungi zamonaviy hayot tarzi hamda qadriyatlari bilan uzviy ravishda bog'lanadi.

3.Faoliyat bosqichi:Amaliy tatbiq.

O'quvchilar hadis mazmunini real hayotiy vaziyatlar, interfaol keyslar, muammoli topshiriqlar, kichik guruhlarda ishlash va rolli o'yinlar orqali amaliy jihatdan tahlil qiladilar.

4.Refleksiv bosqich:O'z-o'zini baholash.

O'quvchilar o'z xatti-harakatlari, shaxsiy hayotiy tajribalari va kundalik xulq-atvorlarini hadisda ilgari surilgan mezonlar bilan taqqoslaydilar hamda o'zlari uchun tegishli xulosalar chiqaradilar.

Hadislar asosida shakllantiriladigan kompetensiyalar va ularning tahlili

Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida hadislar shaxsda nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotda zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tadqiqotlar va dars kuzatishlari natijalari hadislar yordamida o'quvchilarda quyidagi hayotiy kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdi:

1.Fuqarolik va ijtimoiy faollik kompetensiyasi: Halollik, adolatparvarlik va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ifodalovchi hadislar o'quvchining jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

2.Milliy va umummadaniy kompetensiya: Mehr-oqibat, bag'rikenglik va saxovatga oid hadislar insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

3.O'zini o'zi rivojlantirish (kognitiv) kompetensiyasi: Ilm va ma'rifatga da'vat etuvchi hadislar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish hamda intellektual salohiyatini yuksaltirish motivatsiyasini kuchaytiradi.

4.Kommunikativ kompetensiya: O'zaro muloqot madaniyati, nutq odobi va atrofdegilarga hurmat munosabatini o'rgatuvchi manbalar orqali ijtimoiy moslashuvchanlik rivojlanadi.

5.Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: Hadislar mazmunidagi chuqur falsafiy va hayotiy g'oyalarni tahlil qilish orqali o'quvchilarda axborotlarni saralash va tanqidiy baholash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hadislar asosida tashkil etilgan tarbiya mashg'ulotlari an'anaviy dars shakllariga nisbatan o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchilar hadis mazmunini real hayotiy voqealar bilan bog'lab o'rganishlari natijasida murakkab axloqiy tushunchalarni chuqurroq o'zlashtiradilar. Eng

muhimi, bu ta'sir shunchaki bilim darajasida qolib ketmay, o'quvchilarning kundalik xulq-atvorida va ijtimoiy munosabatlarida bevosita aks etadi.

Xulosa

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, hadislar “Tarbiya” fanining ma'naviy-axloqiy mazmunini boyituvchi va chuqurlashtiruvchi eng muhim milliy hamda umuminsoniy manbalardan biri hisoblanadi. Undagi halollik, adolat, ilmga intilish va ijtimoiy mas'uliyat kabi g'oyalar o'quvchilarning shaxsiy kamolotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tarbiya darslarida hadislardan tizimli, bosqichli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash bilan birga, ularning jamiyatda ijtimoiy faol va komil inson bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Taklif va tavsiyalar:

1. **Darsliklarni takomillashtirish:** “Tarbiya” darsliklarida hadislar soni va ularning pedagogik yo'nalishini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga (sinflar kesimida) mos ravishda yanada kengaytirish.
2. **Metodik ta'minot:** Tarbiya fani o'qituvchilari uchun “Hadislar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiya” mavzusida tizimli dars ishlanmalari va amaliy metodik qo'llanmalar majmuasini yaratish.
3. **Pedagogik texnologiyalar:** Interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida hadislarini o'qitishning innovatsion modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.
4. **Raqamlashtirish:** Tarbiya fanining elektron resurslari, ta'limiy platformalari va multimedia materiallariga (multifilm, video-keyslar) hadislar mazmunini integratsiyalash.
5. **Ijtimoiy hamkorlik:** Ota-ona, maktab va mahalla (ustoz-shogird tizimi) hamkorligi zanjirida hadislarining tarbiyaviy va pedagogik imkoniyatlaridan unumli foydalanish tizimini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – 756 b.
3. Usmonxon Alimov. Hadis va hayot. – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – 320 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun «Tarbiya» fani kontseptsiyasi. – Toshkent, 2020. – 48 b.
5. «Tarbiya» fani o'quv dasturi (1–11-sinflar). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023. – 96 b.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 160 b.
7. Mahmudov Q. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. – 208 b.
8. Fayzullayeva G.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid hadislardan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik muammo sifatida ilmiy tahlili // Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2026. – Vol. 77. – № 3. – B. 287–289.

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA EKSPRESSIV VA BILVOSITA NUTQIY AKTLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI <i>Akramova Surayo Renatovna</i>	198
TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) AS AN EFFECTIVE APPROACH TO DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ESL LEARNERS <i>Abdullayeva Sevinchoy Otanazar qizi</i>	204
ONA TILI VA TABIIY FAN MATNLARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI <i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	209
ZAMONAVIY RUS TILI SO'Z YASALISHIDAGI INNOVATSION JARAYONLAR: TENDENSIYALAR VA LINGVISTIKA FANINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Umarova Firuzbonu Jamshidbek qizi</i>	214
DEVELOPING EFL LEARNERS' SPEAKING AND WRITING SKILLS THROUGH BLENDED LEARNING <i>Achilova Risolat A'zamovna, Ugiylov Isakova Rustamjon kizi</i>	221
BADIIY MATNDA NUTQIY AKTLARNING ANTROPOSENTRIK TALQINI <i>Akramova Surayo Renatovna</i>	228
METHODOLOGY FOR DEVELOPING LINGUOCULTURAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS THROUGH FAIRY TALES <i>Djabborova Feruza Azamovna</i>	232
Ijtimoiy fanlar	
JINOYATCHILIK KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY-IQTISODIY SABABLARI, MA'NAVIY-AXLOQIY OMILLARI <i>Xudoyberdiyeva Dilnoza Farxodovna</i>	239
TARBIYA DARSLARIDA HADISLARDAN FOYDALANISH ORQALI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH <i>Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna</i>	245
Aniq va tabiiy fanlar	
BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA <i>Usmonova Mubashira Suvonovna, Saidova Lobar Jaxonovna</i>	251
BIOLOGIYA DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QUVCHILARNING EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI <i>Ibragimova Sitorabonu Akmal qizi</i>	258